

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM METODIKASI
KAFEDRASI

Eshtuxtaroza Matluba

“5141700 Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish” ixtisosligi
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun

*Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati asosida
o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash* mavzusida
yozgan

Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: o‘qit. M.Muhammadiyeva

“Himoyaga tavsiya etildi”

Fakultet dekani:

_____dots. Sh.Nurullayeva
“ ”
_____ 2015 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1. BOB. O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JALOLIDDIN MANGUBERDI HAYOTI VA FAOLIYATI NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI	
1.1.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmun mohiyati.....	
1.2. O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalarining tutgan o‘rni.....	
1.3.O‘quvchilarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunasidan foydalanishning joriy xolati.....	
2.BOB. O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JALOLIDDIN MANGUBERDI HAYOTI VA FAOLIYATI NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	
2.1.Dars jarayonida o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanish.....	
2.2. Sinfdan tashqari tadbirlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparlik ruhida tarbiyalash.....	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar.....	
Ilovalar	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqil Respublikamizda insonparvar-demokratik, huquqiy davlat qurish yo‘lida o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Respublikamizning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan mustaqil davlat sifatida shakllanishi, jamiyat hayotining barcha sohalarida tubdan islohotlar o‘tkazilishi ta’lim-tarbiya tizimining butunlay yangilanishiga olib keldi. Ma’lumki, har bir jamiyatning ongli qatlami o‘zining o‘rinbosarlari bo‘lgan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi uchun qayg‘uradi, g‘amxo‘rlik qiladi. Bu avvalo kelajak avlodning ana shu o‘zgarishlarga dadil moslasha oladigan yuksak bilim, mahorat, keng dunyoqarash va vatanparvar inson bo‘lishini talab yetadi. Mamlakatimiz kelajagi va istiqboli ana shu yosh avlod tarbiyasiga har tomonlama bog‘liq. Zero, ulkan islohotlar amalga oshirilayotgan yurtimizda o‘z vatanini ardoqlaydigan, tanlagan yo‘lidan qaytmaydigan, vatan sha’nini har narsadan ustun deb biladigan yoshlarning bo‘lishi davr talabidir. Vatanparvar, mustaqil fikrga ega bo‘lgan yoshlarga yurtimiz farovonligini yuksaklarga ko‘tara oladi. Respublikamizda olib borilayotgan siyosatning va Prezidentimiz da’vatlarining mohiyatini ham, ma’naviyati teran, boshqalar fikriga ergashmaydigan, vatanparvar avlodni yetishtirish masalasi tashkil etadi, vatanparvar insongina turli yot oqim va mafkuralarga qarshi kurasha oladi, yurt manfaati va ravnaqini o‘z shaxsiy manfaatidan ustun quyadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni ta’limning barcha yo‘nalishlarini isloh qilish va rivojlantirish uchun imkon yaratdi. Ta’lim sohasidagi islohotlardan asosiy maqsad ham xalqimiz ongi va shuurida saqlanib kelayotgan vatanga muhabbat tushunchalarini yosh avlodga singdirish, ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida, mamlakatimiz kelajagini belgilay oladigan barkamol hamda vatanparvar shaxsni shakllantirishdan iborat.

Mustaqil O‘zbekistonning milliy istiqlool mafkurasi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” xalqimiz ming yillar davomida yaratgan, asrab-avaylab kelayotgan ilmiy bilim xazinalariga, boy qadimiy merosimizga asoslanadi. Chunki, ota-bobolarimiz hayot tajribalari natijasida yaratgan o‘git va pandnomalarida, dunyoviy bilimlarida vatanni

asrash, ulug‘lash kabi insonparvarlik g‘oyalari mavjudki, ular nafaqat bugungi kundagi, balki kelajakdagi avlodlar uchun ham ahamiyatli va qadrlidir. Ayniqsa, o‘zbek xalqining faxri va g‘ururi hisoblangan Shiroq, To‘maris, Muqanna, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik va Amir Temur kabi vatanparvar, vatan uchun jonini ayamagan insonlarning hayot yo‘li va faoliyatini o‘rganish hamda vatanparvarlik maktabi tarbiyasidan o‘rnak olishni yo‘lga qo‘yish bugungi davr talabidir.

Yosh avlod ongiga vatan nima ekanligini kengroq targ‘ib qilish, inson uchun vatanning yagona ekanini anglatish ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifasidir. Prezident I. A. Karimov ta’kidlaganlaridek: “Albatta, jahon – keng, dunyoda mamlakat ko‘p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O‘zbekistonimiz yakkayu yagona. Bu go‘zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan. Mana shu ulug‘ tuyg‘u har birimizning dilimizda jo bo‘lishi, hayotimiz mazmuniga aylanishini istardim”¹

Shu bois tadqiqotimiz mavzusini **“Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati asosida o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash”** tarzida tanladik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi - boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanishning pedagogik asoslarini aniqlash va vatanparvarlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanish pedagogik muammo ekanligini nazariy hamda amaliy jihatdan asoslash.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanishga xizmat qiladigan vositalar va manbalarni aniqlash.

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari, shakllari, metod va usullarini belgilash.

¹ I.A.Karimov.Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat”, 2011, 90-bet.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanishga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil etishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti - boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Tadqiqot predmeti - boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanishning mazmuni, shakllari, usul va metodlari.

Tadqiqotning ilmiy farazi - agar:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanishning nazariy-amaliy asoslari aniqlansa;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni, shakllari, usul va metodlari belgilab berilsa;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon muayyan ilmiy metodik tavsiyalarga tayanilgan holda tashkil etilsa;

- yosh avlodda vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanishga oid tarixiy tajribalar umumlashtirilib, ulardan ta'lim amaliyotida foydalanish yo'llari ko'rsatib berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanish jarayoni samarali kechadi hamda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda vatanga e'tiqod barqaror, izchil shakllanib boradi.

Tadqiqot metodlari: nazariy tahlil, kuzatish, suhbat, anketa, savol-javob, test so'rovlari, pedagogik eksperiment.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Kadrlar

tayyorlash milliy dasturi, Boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standartlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning shaxs kamoloti, yoshlarni vatan va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ta'lim tizimi, shuningdek, "Sog'lom bola yili", "Keksalarni e'zozlash yili" dasturlari va mavzuga oid ilmiy – pedagogik, metodik, tarixiy, falsafiy manbalar.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati: shundan iboratki, Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanib, vatanparvarlik tasavvurlarni shakllantirish, rivojlantirish shuningdek, o'quvchilarda vatanparvarlik tasavvurlarini boyitish masalasi pedagogik muammo sifatida tadqiq etilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqotda ishlab chiqilgan metodik ishlardan bo'lajak o'qituvchilar va boshlang'ich sinf o'qituvchilari, o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashda foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining umumiy hajmi kirish, 2-bob, 5-paragrafdan, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JALOLIDDIN MANGUBERDI HAYOTI VA FAOLIYATI NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmun mohiyati

Mustaqil O‘zbekistonning “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” xalqimiz ming yillar davomida yaratgan, asrab-avaylab kelayotgan ilmiy bilim xazinalariga, boy qadimiy merosimizga asoslanadi. Chunki, halqimiz ajdodlardan – avlodlarga meros sifatida o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlarimizda mavjud bo‘lgan hayot tajribalari natijasida yaratilgan o‘git va pandnomalarida, chuqur ilmiy bilimlarida, vatanni asrash va ulug‘lash kabi insonparvarlik g‘oyalarida vatanga muhabbatni tarbiyalash haqidagi fikr va mulohazalari mavjudki, ular nafaqat bugun balki, kelajakdagi avlodlar uchun ham ahamiyatli va qadrlidir. Mamlakatimizda istiqlool tufayli yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash masalasiga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Chunki ma’naviy jihatdan kamol topgan, vatanparvar insonlarga mustahkam hamda rivojlangan jamiyat qurishlari mumkin. Yurtimiz mustaqilligini mustahkamlashda va uni rivojlantirishda ma’naviy sog‘lom avlodni voyaga yetkazish va ularda vatanparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirish zarur. Zero, mamlatimizda islohotlarning natijasi tufayli ta’lim-tarbiya sohasida ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, milliylik tiklanib, moddiy va ma’naviy qadriyatlarning yangi qirralari ochildi. Shuningdek, mustaqillik yillarida o‘quvchilar uchun yildan yilga qulay ta’lim sharoitlari yaratilmoqda. Bunga yurtimizda qad ko‘tarayotgan maktablar, akademik litsey va kollejlar hamda ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishini misol qilib keltirish mumkin. Shu bilan birga o‘tmish madaniy merosimizni o‘rganish jamiyat va fan taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan dolzarb masalalardan biri ekanligini anglagan hukumatimiz milliy qadriyatlarning zamonlar sinovidan o‘tgan, insoniyat uchun foydali tomonlarini tiklashga kirishdi. Jumladan, o‘zbek xalq pedagogikasida barcha davrlar uchun kerak bo‘ladigan ilg‘or fikrlar borki, bular bugungi taraqqiyotimiz uchun ham qimmatli qadriyat hisoblanadi. Ayniqsa, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Amir

Temur, Mirzo Ulugʻbek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat kabilarning millat, yurt taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi katta ekanligini taʼkidlab oʻtmoq joiz. Shuningdek, sobiq Sovet tuzumi davrida xalqning bir qadar unutilgan, insonparvarlikka yoʻgʻrilgan qadriyatlari va ularning afzalliklarini oʻrganish bugungi kun taqozo qiladigan asosiy masalalardan biriga aylandi.

Rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatimiz taraqqiyoti yoʻlida xizmat qilish uchun albatta mustahkam eʼtiqodga ega boʻlgan, milliy qadriyatlarimizning qadriga yeta oladigan, milliy gʻurur va iftixorga ega boʻlgan, vatanga sadoqatli yoshlarni shakllantirish pedagogik zaruratga aylandi hamda davlatimiz diqqat markazida turgan masalalardandir. Xususan, bu masala pedagoglar zimmasiga ham katta masʼuliyat yuklaydi.

Vatan shaʼnini har narsadan ustun qoʻya bilgan, tili, dini, tarixi, milliy qadriyatlari bilan faxrlana oladigan shaxsgina Oʻzbekistonning taraqqiyotiga munosib hissa qoʻsha oladi.

Shu bois boshlangʻich sinf oʻquvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalq qahramonlari namunalaridan foydalanishning pedagogik asoslarini vujudga keltirish yoʻlida ilmiy tadqiqotlarni olib borish bugungi davr talabidir. Shaxsning eng qadrlanadigan tuygʻularidan biri, uning vataniga boʻlgan muhabbatidir. Vatanga muhabbat, vatanparvarlik toʻgʻrisida fikr yuritishdan oldin “vatan”, “vatanparvarlik” tushunchalarining mazmuni, mohiyati haqida toʻlaroq tasavvurga ega boʻlish lozim.

Vatan tushunchasining ilmiy, pedagogik, falsafiy, badiiy, jihatlariga toʻxtaladigan boʻlsak, 2006 yilda nashr etilgan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da vatan tushunchasiga quyidagicha taʼrif berilgan: Kishi tugʻilib oʻsgan va oʻzini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; kishining tugʻilib oʻsgan oʻlkasi, shahri yoki qishlogʻi; turar joy, boshpana, maskan, uy sifatida talqin etilgan.¹

“Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”da esa, vatan tushunchasiga shunday taʼrif keltiriladi: Vatan – kishilarning tugʻilib oʻsgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, oʻziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlar majmui. Vatan ona kabi muqaddas. Vatan oldidagi qarzдорlik

¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Birinchi jild. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”. T., “Davlat ilmiy nashriyoti”. 2006, 444-bet.

tuyg‘usi, mas’uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevishtirish vatanparvarlikda namoyon bo‘ladi.¹

Qadimgi ajdodlarimiz ham vatan tuprog‘ini muqaddas bilganlar. Ular vatanning har bir qarich yeri uchun jangu jadallar qilib, qon kechganlar. Rivoyat qilishlaricha, O‘g‘izxonning kuchli dushmanlaridan biri unga qarshi urush boshlash uchun turli bahonalar izlaydi, turli talablar qo‘ya boshlaydi. Birinchi bo‘lib undan eng yaxshi ko‘rgan otini so‘raydi. O‘g‘izxon xalqining behuda qoni to‘kilmasligi uchun sevimli otidan voz kechadi. O‘rtadagi vaziyatni yanada keskinlashtirish uchun xonning jig‘iga tegish maqsadida ikkinchi marta dushman hukmdor xondan sevimli xotinlaridan birini berishni so‘raydi. Mamlakat oqsoqollari surbet xonga qarshi urush boshlashni talab qiladilar. Bu safar ham behuda qon to‘kishni istamagan O‘g‘izxon, sevimli xotinidan voz kechadi. Va nihoyat, raqib podsho O‘g‘izxon davlatiga qarashli parcha yerni in’om etishni so‘raydi. Oqsoqollar xonga yerni surbet podshoga berishni maslahat beradilar. Shunda O‘g‘izxon quyidagi so‘zlarni aytadi: “Vatan yolg‘iz bizning mulkimiz emas. Mozorda yotgan otalarimiz va endi tug‘ilajak avlodlarimizning bu muborak tuproqda haqlari bordir. Vatandan ozgina bo‘lsa ham, bir qarich bo‘lsa ham yer bermakka hech bir kimsaning haqqi yo‘qdir” deya O‘g‘izxon dushmanga qarshi urush e’lon qiladi va g‘alaba qozonadi.²

Darhaqiqat, vatan bir kishining mulki emas, u o‘tib ketgan ajdodlar yurti, o‘tib o‘tgan avlodlarning mulki; vatan – shu yurtda yashab turgan har birimizning mulkimizdir. Demak, yer yuzida millat uchun vatan mavjud ekan, xalqda vatan tuyg‘usi doimo, barcha davrlarda barqaror bo‘laveradi.

Inson uchun molu dunyo, toju taxt vatanga tenglasha olmaydi. Chunki, shu vatanda uning qavmu qarindoshlari yashaydi. O‘ziga o‘xshagan millat vakillari, xuddi uningdek qoshu ko‘zga, rang, tili va dili bir xil bo‘lgan kishilar, unga tanish va huzurbaxsh etadigan ona tabiati mavjuddir. Vatandan ayriliq inson uchun katta fojia sanaladi. Musofirlikda inson hech qachon shodon yashay olmaydi. Ko‘ngli o‘ksik, qalbi yarim bo‘ladi.

Sho‘rolar davrida quloq qilingan, molu davlati musodara etilib, peshonasiga “vatan xoini” tamg‘asi bosilgan yurtdoshlarimiz chet ellardan panohtopdilar. Ko‘pchiliklarining

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., “Davlat ilmiy nashriyoti”, Tom 2, 2001, 395- b.

² O‘g‘izxondan qolgan mulk. T., “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”, 1995, 106- bet.

ota-onalari, sevikli yorlari, farzandlari vatanda qolib ketdilar. Ular bilan aloqa qilish taqiqlab qo'yildi. Ularning yaqinlari ham "vatan xoinining o'g'li yoki qizi» tamg'asi ostida yashashga majbur bo'ldilar. «O'zga yurtlarda yeb-ichish, kiyinish va ilm olishdan kamchiligim bo'lmasa-da, – deb yozadi Buxoro Sho'rolar hokimiyatining raisi Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, – professor Temirxo'ja, – otamdan eshitganim Turkiston degan yurtga borishni qirq uch yil kutdim. Vafotlaridan oldin yonlariga chaqirib: "Men senga hamisha yodingda tutishing uchun vatan hasratini qoldirdim", degan edilar. Otamning vasiyatini eshitgan onimdan boshlab men qayta vatanlik bo'ldim. Vatan mening ichimda ...".¹

U. Mahkamov «Axloq-odob saboqlari» kitobida vatan tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Vatan – har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota-ona, aka-uka, opa-singillariga bo'lgan munosabatida aks etadi. Ona-Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon o'zgarmaydi. Vatanga muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qonga kiradi. Bu aziz tuyg'uni ona allasi parvarish etadi, voyaga yetkazadi».²

Vatan tuyg'usi haqida gapirar ekanmiz, avvalo, uning insonda mavjud psixologik his-tuyg'u ekanligini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Vatan tushunchasini pedagogik nuqtai nazardan o'rganganda esa insonda mavjud bo'lgan bilish faoliyatining umumiylikdan xususiylikka tomon boradigan fikr yuritish nuqtai nazaridan yondashmoq lozim: demak, vatanning umumiy tushuncha ekanligi – bu insoniyat uchun yer kurrasining o'ziga makon etgani bo'lsa; millatning paydo bo'lishi va qaysi millat qayerni vatan deb bilishi esa bilish faoliyatining xususiy yo'lini belgilaydi.

Yuqorida ketirilgan ta'rif va tavsiflardan kelib chiqib, vatan tushunchasini boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tushunarli tarzda quyidagicha bayon etishga harakat qildik.

Vatan – bu biz tug'ilib, voyaga yetayotgan zamin; qadrlayotgan qadriyatlar, mehnatkash halq, mahalla, oila, qo'ni-qo'shnilar, ajdodlarimizdan meros qolgan jonajon o'lkamizdir.

Vatan, vatanparvarlik so'zlari doimo biri-ikkinchisini to'ldirishi, ifodalashini inobatga olib, "vatanparvarlik" tushunchasining mazmuni, mohiyatini anglab olish lozim.

¹Ergashev F., Obidov D. Milliy ta'lim tarixidan. T., "Akademiya", 1998, 2- b.

² Mahkamov U. Axloq odob saboqlari. T., "Fan", 1994, 29- b.

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da **vatanparvarlik** - kishilarning ona-yurtiga, o‘z vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi.¹

A.Erkayevning “Ma’naviyat – millat nishoni” kitobida vatanparvarlik tuyg‘usi haqida quyidagicha fikr bildirilgan: – “**vatanparvarlik**” – eng avvalo, mustaqillikni mustahkamlashga ijobiy hissiy munosabatdir. Vatanparvarlik, shuningdek, e’tiqod sifatida tegishli tushunchalar, qarashlar, g‘oyalar, ideallardan ham tarkib topadi. Vatanparvarlik minglab, millionlab xalq tomonidan istiqlolni mustahkamlashni, rivojlantirishni, uni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kengaytirish zaruriyatining asosiy tamoyillarini to‘g‘ri tushunish, istiqlol manfaatlarini shaxsiy, guruh, sinfiy, mahalliy-mintaqaviy manfaatlardan ustun qo‘yishdir”.²

Demak, **vatanparvarlik** tuyg‘usi nasldan naslga o‘tadigan, tug‘ma his-tuyg‘ular jamlanmasi emas, balki ta’lim-tarbiya jarayonining mahsulidir. Vatanparvarlik vatan boyliklari-yu, go‘zal tabiatidan faxrlanishgina emas, balki uni yanada mukammalroq his qilish, shu zamin uchun ter to‘kish, xalqining farovon hayoti uchun o‘z manfaatidan yurtdoshlari manfaatini yuqori qo‘yish, vatan himoyasiga shay turish, xalq qadriyatlarini kelajak avlodlarga meros qilib qoldirishda o‘z hissasini qo‘shish bilan namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlar majmuasidir. Shu bilan birga vatanga e’tiqod vatanparvarlikni to‘ldirib, mukammallashtirib boruvchi dunyoqarashning bir bo‘lagidir.

Vatanparvarlik, vatan ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, kerak bo‘lsa, vatan uchun jonini fido qilish xalqimizning azaliy e’tiqodlaridan biridir. Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanparvarlikni shakllantirish pedagogik faoliyatning asosiy vazifasidir.

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.- T., “Davlat ilmiy nashriyoti”, Tom 2, 2001, 395- b.

² Erkayev A. Ma’naviyat - millat nishoni.- T., “ Ma’naviyat”, 1997, 98- b.

Vatanparvarlikning negizida vatanga e'tiqod yotadi, e'tiqodning o'zagini sadoqat va vafodorlik tashkil etadi. Shu borada xalq orasida yuradigan bir rivoyatni keltirib o'tishni lozim topdik. Qadimda bir podshoh ko'p yurtlarni bosib olgan ekan. Faqat bittagina davlatni bosib olishdagi harakatlari zoya ketibdi. Shunda podshoh davlat maslahatchilarini yig'ibdi va ularga maslahat solibdi. Uzoq tortishuvlardan keyin, o'sha davlat ichidan tarafdor topish kerak degan fikrga kelishibdi. Tez orada bunday kishi topilibdi va podsho tomonidan ko'p va'dalar berilibdi. E'tiqodsiz o'sha kishi vatan darvozasini dushmanga ochib beribdi. Shunday qilib, sarhadlari mustahkam bir davlat birgina e'tiqodsiz kishi tufayli osongina qo'lga kiritilibdi. Podsho esa yigitni dorga osishni buyuribdi. Yigit dod solib, podshohni subutsizlikda ayblabdi.


– Men bergan va'damning ustidan chiqdim, – debdi podshoh. Senga atalgan saltanatimning eng baland joyi mana shu. Chunki, mana shu dor mening taxtimdan-da baland turibdi. Bundan boshqacha bo'lishi mumkin emas. Chunki, o'z vataniga, halqiga xiyonat qilgan inson bizga sodiq bo'lishiga hech kim kafolat berolmaydi. Sen uchun munosib joy dor! – deb xitob qilgan ekan podshoh.

Bu rivoyatdan xulosa chiqarib aytishimiz mumkinki, barcha davrlarda ham vatanga xiyonat og'ir va kechirib bo'lmaz gunoh sanalgan. Demak, qachonki kishida sadoqat, vafodorlik, iroda bo'lsagina chinakam vatanga e'tiqodli insonning siymosini ko'rish mumkin. Bunday kishilar vatan boshiga tashvish tushganda yoki boshqa vaziyatlarda o'zlarini tuta biladilar, o'z fikr va e'tiqodida mustahkam turadilar, har narsadan vatan tinchligi va osoyishtaligini ustun qo'yadilar, vatan ravnaqi yo'lidagi har qanday qiyinchiliklarni bartaraf etishga harakat qiladilar, qiyin vaziyatlarda ham o'zlarida kuch va iroda, matonat topa oladilar.

Demak, vatan, vatanparvarlik, tushunchalari bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda, chambarchas bog'langan holda, kishilar faoliyati jarayonida o'zligini namoyon etadi. Biri ikkinchisini to'ldirib boradi. Vatansiz vatanparvarlikni, vatanparvarliksiz vatanni tassavvur etib bo'lmaydi. Bu esa quyidagi ko'rinishda aks etgan .


1.1.1-rasm

Vatan, vatanparvarlik tushunchalarining o'zaro bog'liqligi



Vatan, vatanparvarlik haqidagi manbalarni oʻrganib chiqib, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida vatanparvarlikni shakllantirishda tayaniladigan mezonlarni quyidagicha belgiladik:

1. 1. 2-rasm



Ushbu mezonlarga tayangan holda boshlangʻich sinf oʻquvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanishning tutgan oʻrnini pedagogik jihatdan oʻrganish muhimdir

1.2. O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalarining tutgan o‘rni.

Xalqimizning tarixi qadim-qadimlarga borib taqaladi. Bu boy tarixni hali o‘qilmagan sahifalarini xolisona o‘rganish va uni o‘quvchilarga o‘rgatish vatanparvarlik tarbiyasining muhim omilidir. O‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi yo‘q. O‘zbek xalqi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan haqiqiy vatanparvar insonlarning siymosini ko‘ramiz. Zero bu borada prezidentimiz I.A.Karimov o‘zlarining ma‘ruzalarida “Urganchni bosqinchilaridan himoya qilishda bayroq tutib jon bergan Najmiddin Kubroning qahramonligida, Dunyoni to‘fondek bosgan Chingizxon qo‘shiniga qarshi o‘n yil mustaqil mardona kurash olib brogan Jaloliddin Manguberdining jangovar ruhida, yurtimizni islohatchilardan ozod qilish...”¹ kabi ezgi fikr uchun kurashganliklarini alohida ta’kidlaydilar. Yoshlarni vatanparvarlik, burchga sadoqat, jasurlik, qahramonlik ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biri ota-bobolarimizning o‘z ozodligi va mustaqilligi uchun bosqinchilarga vatan dushmanlariga qarshi janglarda ko‘rsatgan qahramonliklari, jasoratlari, sarkardalik mahoratlarini ibrat va namuna qilib ko‘rsatishdir. Masalan, To‘maris va Shiroq, Muqanna, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Temur Malik, Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, ikkinchi jahon urushi yillarida halok bo‘lgan ko‘plab vatandoshlarimizning o‘zbek xalqi tarixida tutgan o‘rni, mustaqillik uchun kurashda ko‘rsatgan jasoratlari o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun katta manba bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda mustaqillik sharofati tufayli, ularning muborak nomlarini g‘urur va iftixor ila tilga olmoqdamiz, o‘zbek halqi ozodligi yo‘lida chekkan zahmatlarini istiqlool sharofati tufayli yuksak qadrlamoqdamiz. Bugun biz qadriga yeta boshlagan vatanimizni ota-bobolarimiz, jahonga mashhur sarkardalar, ma‘rifatparvar kishilar ko‘z qorachig‘iday asrashgan, millat sha‘ni va or-nomusi uchun jang qilishgan. Shuning uchun ularning unutilmas nomlari tarixda qolib, og‘izdan-og‘izga o‘tib, afsonaga aylangan bo‘lsa ajab yemas.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. T.: “Ma‘naviyat”, 2008 y.163-164 b.

Shaxslar bo‘ladiki, ilm-fanning turli sohalarida qalam tebratib, xalqning ma’rifiy-madaniy o‘rishiga salmoqli ta’sir ko‘rsatuvchi asarlar yozib qoldiradilar. Ular xalqning madaniyati xazinasida nodir boylik bo‘lib saqlanadi va bir umr ashyoviy dalil sifatida xizmat qiladi. Yana bir xil shaxslar bo‘ladiki, ular hech qanday asar yozib qoldirmaydilar ammo ularning hayoti va turmush tarzi, bosib o‘tgan yo‘li manzaralari, yashash tarzi va tajribalari jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeyi, el-yurtda qozongan obro-u-e’tibori hamda bunga sabab bo‘lgan omillar voqea va hodisalar ta’lim-tarbiya vositasi sifatida xizmat qilishga qodir. Tarix sahifalarida nomi zarhal harflar bilan yozilgan ana shunday buyuk va suyuq shaxslardan biri Xorazmshox Jaloliddin Manguberdidir.

Demak, Jaloliddin Manguberding hayoti va turmush voqealarini davlatni boshqarish hamda harbiy faoliyatini chuqur tahlil asosida o‘rganish va umumlashtirish hozirgi va kelgusi avlodni vatanparvarlik va xalqparvarlik qarashlarini tarkib toptirish, rivojlantirish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorazmshox Abulfathning o‘g‘li Muhammad Tekish XII asr oxirlarida endigina taxtga o‘tirgan paytda unga mulozimi Jahon Palvon nabiralik bo‘lgani haqida xushxabar olib keladi. Yangi tug‘ulgan bu farzandga Jaloliddin deb ism qo‘yishadi. Xorazmshohiyalar odatiga ko‘ra, bu ism mo‘tabar laqab sifatida qo‘llanilgan.

Jaloliddin yoshligida ko‘proq tog‘asi jahon polvon tarbiyasida bo‘lib uning diniy va dunyoviy bilimlar olishiga, adabiyot va san’atni, musiqa sirlarini o‘rganishiga alohida ahamiyat berildi. Eng avvalo Jaloliddinga Xorazmona axloq-odob, mehr-oqibat, insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg‘ulari singdiriladi. U qurol bilan va g‘ilofsiz jang qilish sir-asrorini mukammal egalladi.

Jaloliddin Manguberdi butun hayoti davomida o‘z xalqi va vatanini sevdi, tarixi va madaniyatini yuksak qadrladi, ona tabiat go‘zalliklarini qalban his qildi, ardoqladi. Rivoyat qilishlaricha, Jaloliddin hayqirib oqayotgan Jayxunga kesak otgan ukasining chakkasiga tarsaki qo‘yib yuboradi, - suvga kesak otmoq, tuproqqa tupurmoq gunohi azim, sen Xorazmni onang o‘rnida ko‘r! – deb xitob qiladi.

Bu rivoyat orqali Jaloliddin Manguberding vatan, ona zaminga bo‘lgan mehri, e’tiqodi yuksak ekanligi ko‘rinib turibdi. Jaloliddin bolaligiga xos yuqorida keltirilgan

xulq-atvor, odob, axloq ko‘rinishlari, go‘zal fazilatlari hozirgi va kelgusi avlod uchun namuna sifatida xizmat qiladi. Uning bu kabi fazilatlari; tanlagan yo‘ldan qaytmasligi, ma‘rifatparvarligi, vatanni qalban sevishi, islom dini, ustozlarini qadrlagani, mardligi, halolligini targ‘ibot qilish, yosh avlod uchun har tomonlama namunali inson ekanini ko‘rsatish bugungi kunda o‘qituvchilarning muhim vazifalaridan biridir. U Xorazm adabiyoti va san‘ati tarixi, xalqi va vatani madaniyatini sevdi va qadrladi. Uning bu kabi go‘zal odobi, ma‘rifatparvarligi, vataniga beqiyosh mehrini, dini islomni qadrlashi, mardligi, halolligi, bir so‘zli ekanligini ko‘rgan Xorazmshohlar piri Najmiddin Kubro Jaloliddinni o‘z o‘g‘li kabi ardoqladi va unga saboq berdi. Jaloliddin yoshligidan ot o‘ynatib, qilichbozlik qilishni yoqtirgan va tinmay mashq qilgan.

Jaloliddin Manguberdi shunday olijanob bir inson ediki, u shuhratparast, maishatboz, hudbin, kaltabin va qo‘rqoq otasi Muhammad Xorazmshoxdan mutlaqo farq qilib, jasur mardligi bilan ajralib turardi. Mo‘g‘ullar bosqini boshlanmasdanoq Jaloliddin xalq quyg‘usi bilan hamnafas bo‘lib, yurt himoyachilarining oldingi safida bo‘ladi, u o‘zining sarkardaligi, qurqmasligi, mardlik fazilatlarini namayon etadi. Uning boshchiligida Xorazm o‘g‘lonlari jangga kirishganda mo‘g‘ul lashkarlariga shu qadar katta talofat etkazadiki, nomi mashhur bo‘lib ketadi. Chingizxonning tepa sochi tik bo‘lib asabiylashar, uni qanday hiyla-nayrang bilan qo‘lga tushurishni o‘ylar, maqsadi tubiga yeta olmay hayron bo‘lardi.

Movarounnahr yo‘lbarsi Jaloliddin Chingizxon qo‘shinlariga payt poylab shunday qaqshatgich zarbalar berganki, uning lashkarlari tum-taraqay bo‘lib qochardilar. Jaloliddin shu tariqa o‘n yillar davomida o‘zining fidokor va jasur jangchilari bilan mo‘g‘ul tolanchilariga ona vatanining turli sarhadlarida zarbalar bergan. U goh Movarounnahr, goh Avg‘oniston, goh Hind, goh Eron va Kavkaz orti hududlarida kezib, xalqlardan yangi-yangi lashkarlar to‘plab yovuz dushman bilan tinimsiz olishdi. Xalqi erki, ozodligi va mustaqilligi uchun butun iste’dodini va kuchini baxshida etib ko‘rashdi.

Jaloliddin Manguberdining ona vatan va xalqi muhabbati bilan yashaganini, butun hayotini shu yo‘lda baxshida etganini shoir Erkin “Ajdodlar qilichi” tarixiy fojiasida sarkarda tilidan bunday tasvirlaydi.

Endi ko‘zin ochgan go‘dak beshik ichida,
Nafaslari qaytib, titrab big‘-big‘ yig‘lasa,
Nechun tig‘ga aylanmasin bizning moyimiz,
Qarshimizdan qonxo‘r chingiz lashkarlari nechuk
Parchalanib ketmas huddi o‘q tekkan toshdek.
Aks holda, ko‘r bo‘lgan yaxshi ko‘zimiz,
Shol bo‘lgani yaxshi oyoq-qo‘llarimizning,
Gar hammamiz bitta bo‘lib chingiz sirtmog‘in,
Uzolmasak, uni butkul yerning yuzidan,
Xuddi tergan dog‘ni yuvgan kabi sidirib,
Tashlolmasak, xarom bizga odam degan nom.¹

O‘z vatani ozodligi yo‘lida qo‘liga qilich olib, dushmanga qaqshatqich zarbalar keltira olgan Xorazmning mard o‘g‘loni Jaloliddin Manguberdi mug‘ul qushinlari bilan qaerda yuzma-yuz kelsa, ularga juda qattiq talofatlar etkazadi. Chingizxon eng sara lashkarlari va mohir sarkardalarini Jaloliddin Manguberdi izidan quvib borishga, uni yo‘q qilishga, iloji bo‘lsa tiriklayin qo‘lgatushurishga qat’iy farmon beradi. Lekin Movarounnahr yo‘lbarsini mag‘lub eta olmaydi. Uning ketidan hatto Chingizxonning o‘zi ham maxsus lashkar bilan tushadi. Nihoyat, u bilan daryo sohilida ancha yuzma-yuz keladi-yu, baribir, buyuk sarkardani qo‘lga tushura olmaydi. German Vamberi o‘zining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” asarida ana shu voqeani ajoyib tarzda tasvirlaydiki quyida undan bir lavhani keltiramiz.

Xorazm saltanatining vorisi etib ancha kech belgilangan Jaloliddin Manguberdi to podsholikni qo‘lga kiritguncha o‘zini himoya qilish uchun qilich ushlashga majbur bo‘ladi,-deb yozadi German vamberi- U Xorazmdan Hirot va G‘aznaga azm etadi. Bu erda kuchli lashkar to‘pladi va ikki jangda mug‘ullarni mag‘lub etib, ularga katta talofat keltiradi. Chingizxon Tolqon shahrini qamal qilganligi sababli yo‘lda to‘xtab qolgan edi. Bu mag‘lubiyatdan u qattiq g‘azablanadi va Boliyon hamda Qobul orqali G‘aznaga shu qadar tez yuradiki, mug‘ullarning osh pishirishga vaqtlari bo‘lmaydi. Lekin u G‘aznaga kelgach, Jaloliddin 15 kun avval Hind sohillariga ketganligini biladi.

¹ AminovB, Rasulov T. “Vatan –yurakdagi javohir”. T.: ”O‘qituvchi”, 1996. 59-60 bet.

Mug‘ullar safarlarini tezlashtirib g‘alaba qilgan shaxzodaning ortidan ketadilar. Unga ablahona g‘azab bilan hujum qiladilar. Jaloliddin odatiy qahramonliklar ko‘rsatib mudofada turadi. U g‘azabl原因 arslon kabi dushmanga goh o‘ng, goh sul qanotlardan, ba‘zan markazdan hujum qiladi. Oqibatda mo‘g‘ullar uni o‘rab oladilar. U ostidagi ikki ot chopilgach, uchunchi otga minayotganda mug‘ular unga tenglashadilar. U Hind daryosining 10 arshinlik buyuk sohilidan suvga sakrab tushadi. Nargi tomonga salomat chiqib oladi. Buni ko‘rgan mug‘ullar uning ortidan o‘zlarini suvga tashlamoqchi bo‘ladilar. Lekin Jaloliddinnig qahramonligiga qoyil qolgan Chingizxon bundan keyin uni ta‘qib etishni man qiladi.¹

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Jaloliddin Manguberding jасoratini vijdonan his etgan bosqinchi Chingizxon ham unga nisbatan yuksak fikr bildirib o‘zining ham Jaloliddin kabi mard va jasur farzandi bo‘lishini xoxlaydi va uning mardligiga tan beradi.

Jaloliddin Manguberdi qoxo‘r dushman bilan ayovsiz janglarda g‘olib chiqdi-yu, umrining achchiq intihosini qarangku, shunday ulug‘ qahramon bir xoinning banogoh tasodifiy tig‘idan halok bo‘ladi. Bu mudhish voqea 1231 yilning avgust oyida sodir bo‘ladi.

Jaloliddin Manguberding hayoti va vatanga muhabbati yo‘lidagi faoliyatini chuqur tahlil asosida o‘rganish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining vatanga muhabbat, ona-Vatanga cheksiz muhabbat, g‘urur va iftixor, vatan va xalq tinchligi yo‘lida jon fido etish, insonparvarlik kabi qarashlarini tarkib toptirish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va xotirasi xalqimiz uchun buyuk qadriyat sanaladi. Uning ibratli hayoti, millati va vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbati, mustahkam e‘tiqodi har birimiz uchun namuna va o‘rnakdir. Jangovor salohiyati va lashkarboshilik mahoratini o‘rganish, ularni kelgusi avlodga targ‘ib etish ta‘lim-tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Uning vatan ozodligi yo‘lida chekkan

¹ AminovB, Rasulov T. “Vatan –yurakdagi javohir”. T.: ”O‘qituvchi”, 1996. 60-61 bet.

zahmatlarini targʻib va tashviq qilish yosh avlodni vatan, el-yurtga eʼtiqod tomon yetaklaydi.

Bu borada Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 sentyabrda qabul qilingan qarori ham alohida ahamiyat kasb etdi. Bu qarordan kelib chiqib Oʻzbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi tegishli vazirliklar idoralari, hokimliklar jamoat tashkilotlari bilan birgalikda “Jaloliddin Manguberdining dunyo tarixida tutgan oʻrni” mavzusida halqaro konferensiya tashkil etildi.

Ilmiy-ijodiy uyushmalar jamoat tashkilotlari va “Oltin meros” jamgʻarmasi bilan birgalikda Jaloliddin Manguberdining Markaziy Osiyo xalqlari tarixida tutgan oʻrni xolisona oʻrganib chiqdilar.

Aslida vatan tuygʻusi har birimizning qonimizda bor. Qayerda boʻlmaylik, avvalo, vatan sogʻinchidan oʻrtanamiz. Ota-onamiz, opa-singillarimiz, aka-ukalarimiz, qishlogʻimiz, shahrimiz, vatanimiz tomon talpinamiz, ularning barisi vatanimizdir, vatanimizning bir boʻlagidir. Qadimda safarga otlangan, vatandan quvgʻin qilingan kishilar doimo vatanining aziz tuprogʻini yonlarida olib yurganlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, insoniyat tarixida vatanparvarlikni shakllantirish oʻzining muayyan tarixiy yoʻliga ega boʻlgan bu masala har doim taʼlim va tarbiya jarayonining yetakchi vazifalaridan hisoblangan. Bugungi kunda ham oʻquvchilarda vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish maqsadida taʼlim mazmuniga bir qator mavzular va oʻquv materiallari kiritilgan. Biroq, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida vatanparvarlik tushunchasini shakllantirishda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanishga xizmat qiladigan oʻquv materiallari bilan boyitish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biridir.

1.3.O‘quvchilarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunasiidan foydalanishning joriy xolati

Insonda vatanga muhabbat tuyg‘usi ilk bor ona allasi orqali singdiriladi va oilaviy munosabatlarda shakllantirilib boriladi. Keyinchalik maktabgacha ta‘lim muassasasida hamda maktabda vatanga muhabbat tuyg‘usi tarbiyalanadi. Bu jarayon bevosita ta‘lim mazmuni va sifatidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Davlat ta‘lim standarti talablarida o‘quvchilarni insonparvarlik, vatanparvarlik va baynalmilalchilik ruhida tarbiyalashga, mustaqil fikrlaydigan, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga qodir barkamol shaxsni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero, o‘quvchilar ongiga boshlang‘ich sinflardan o‘q Vatanga muhabbat, milliy munosabat madaniyatini chuqur singdirish va yuksak ma‘naviy-axloqiy talablarga javob beruvchi barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi va oliy ta‘lim tizimining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ta‘lim jarayonida vatanparvarlik tarbiyasi muhim pedagogik muammolardan hisoblanadi. Chunki yurtboshimiz ta‘biri bilan aytganda, “Bugun yangicha fikrlaydigan, o‘z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, mamlakatimizning kelajagini jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvi bilan bog‘liq holda ko‘radigan yangi avlod vakillari hayotga kirib kelmoqda”.¹ Shunday ekan, Vatanimiz va xalqimiz tarixini o‘rganish, o‘quvchi shaxsida boshlang‘ich sinflardan o‘q vatanparvarlikni shakllantirish ularning siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Albatta, bunda adabiyot, tarix va boshqa ijtimoiy fanlardan saboq berishda tarixiy shart-sharoitlar, buyuk shaxslar va sarkardalarning vatanimiz tarixiy rivojlanishiga ta‘siri bayon etilgan matnlarni vatanparvarlik nuqtai nazaridan o‘rganish qimmatli ma‘lumotlar beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik mavzusida ma‘ruza, muloqot, suhbat, bahs-munozara uyushtirish, kengash va anjumanlar o‘tkazish katta ahamiyatga ega. Bularning barchasi o‘quvchilarning xalqimizning boy madaniy merosi va o‘lmas qadriyatlaridan to‘laqonli bahramand bo‘lib, sog‘lom ma‘naviy muhitda vatanparvar shaxs bo‘lib kamol topishiga sharoit yaratadi.

¹ Karimov I.Tinchlik va havfsizligimiz o‘z kuch qudratimizga, hamjixatligimizga va qat‘iy irodamizga bog‘liq. 17-b.

O'quvchilarni axloqli, odobli, insonparvar va vatanparvar qilib tarbiyalash ishi ularning yoshligidanoq boshlanishi zarur.

Boshlang'ich sinf bu sohada dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinfda asosiy e'tibor bolani savodli, bilimli qilishga qaratilganligi bilan birga ularda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishda ham asosiy zamin hisoblanadi. Chunki, yoshlikdan berilgan to'g'ri tarbiyagina insonning ulug'vor kelajagini va to'g'ri harakatini ta'minlaydi.

O'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishda Jaloliddin Manguberdi haqidagi ma'lumotlardan boshlang'ich sinflardanoq foydalanish samarali natija beradi. Biz tadqiqotimiz maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, boshlang'ich sinf darsliklarida Jaloliddin Manguberdi haqidagi ma'lumotlardan foydalanilish darajasini tahlil qilishga kirishdik va bu darsliklarning mazmunida o'quvchilarni vatanparvarlikka undaydigan o'quv materiallariga alohida o'rin ajratilganligini ko'rish mumkin.

Boshlang'ich sinf yangi avlod darsliklarni yaratishda ko'pgina mutaxassislar faol ishtirok etdilar. Bu borada R.Safarova, T.G'afforova, Q.Abdullayeva, O.Hasanboyeva, S.Fuzailov, M.Umarova, V.Ahmedov, S.Matchonov, A.Grigoryans, R.Hasanov, Sh. Nurullayeva kabilarning xizmatlarini ta'kidlab o'tmoq joiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvar qilib tarbiyalashda "O'qish" darsligi alohida ahamiyatga ega. Ushbu darslik yordamida o'quvchilar o'zbek halqining tarixi, mashhur allomalari, xalq og'zaki ijodi, O'zbekiston hududi, vatanimiz tabiati, unda yashovchi insonlar mehnati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari haqida bosqichma-bosqich ma'lumotga ega bo'lib boradilar.

Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartlarida 1-sinf uchun "O'qish" darsi savod o'rgatishdan keyin amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilarni quyidagi mavzular bilan tanishtirish nazarda tutilgan: ona tabiat va erta bahor, kishilar mehnati, bolalar o'yini, odob-axloqqa doir matnlarni o'qish va boshqalar. O'quvchilarda vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi mavzular mavjud: Darslikning kirish qismi Prezidentimizning "Farzandlarimiz bizdan kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart" degan ezgu fikrlari bilan boshlangan. "O'zbekiston- mening Vatanim" bo'limida shoir Po'lat Mo'minning "Vatan-bu" she'ri

berilgan bo‘lib uni to‘ldirish uchun quyidagi maqollar berilgan: “Vatani borning baxti bor”. Shuningdek darslikning ushbu bo‘limida Qutlibeka Rahimberdiyeva qalamiga mansub “Buyuklar vatani” matni berilgan bo‘lib ushbu matnda Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiylarning shu yurt farzandi ekanligi va ularning vatan ravnaqida tutgan o‘rni haqida ma’lumot berilgan. Matnni to‘ldirish uchun savollar, “Ona yurtning oltin beshiging” maqoli keltirilgan. Ushbu darslikda shoir Odil Abdurahmonning “O‘zbekiston askarlari” she’ri, Eson Rahimovning “Ota rozi-Vatan rozi”, Miraziz A’zamning “Vatan” she’rlari, Xurshid Davronning “Yagonadir Vatanning sening” matni berilgan bo‘lib, ushbu ma’lumotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tushunarli sodda tilda bayon qilingan. Shuningdek ushbu darslikning “Biz-buyuklar avlodi” bo‘limida vatanimiz tarixida alohida o‘ringa ega bo‘lgan buyuk allomalar haqida rivoyat va matnlar berilgan.

“O‘qish” darsligi xalq qahramonlari namunalari orqali o‘quvchilarda vatanparvarlikni shakllantiruvchi asosiy vositalardan biridir. Bu darslik 1-sinfning ikkinchi choragidan boshlab, to to‘rtinchi sinfning yakunigacha o‘qitiladi. 2-sinf “O‘qish” darsligida vatanparvarlik mavzusiga alohida o‘rin berilgan. Chunonchi, vatan, vatanparvarlikni tarbiyalashga xizmat qiluvchi “Ona-yurtim oltin beshigim” bo‘limiga 22 soat ajratilgan.

Bu bo‘limda o‘quvchilarga bizning ona yurtimiz–O‘zbekiston Respublikasi, uning poytaxti Toshkent ekanligi, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg‘ona, Andijon, Namangan, Qashqadaryo, Surxandaryo, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent, Navoiy kabi viloyatlari borligi aytib o‘tiladi. Mamlakatimiz hududidagi tog‘lar, tepalik va past tekisliklar, o‘simlik va hayvonot dunyosi haqida tushuncha beriladi. Bu boyliklarni asrashga da’vat etiladi.

3-sinf “O‘qish” darsligida ko‘proq milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlikni shakllantirishga alohida e’tibor berilgan. Jumladan, “Vatanim – jannat makon O‘zbekiston” bo‘limiga 19 soat ajratilgan. Bu bo‘limda o‘quvchilarga O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi, uning Davlat bayrog‘i, tamg‘asi, Konstitusiyasi haqida tushuncha beriladi. Har bir kishi o‘z vatanini sevishi, vatan uchun jonini ayamasi,ligi,

ona tilini qadrlashi haqida aytib o‘tiladi. Kishilar mehnati haqidagi badiiy va ilmiy ommabop asarlar o‘qitiladi.

4-sinf “O‘qish” darsligida xalq qahramonlari namunalariga alohida o‘rin berilgan. Shu bilan birga vatanga muhabbat, vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladigan ”Istiqlolim–istiqlolim” bo‘limi yuzasidan 6 soat, “O‘zbekiston – vatanim manim” bo‘limi uchun 8 soat ajratilgan. Ushbu bo‘limlarda taniqli yozuvchilarning istiqloлга bag‘ishlangan asarlari, istiqlolning ahamiyati tahlil etiladi. “Erk nashidasi” mavzuida ijodiy suhbat uyushtiriladi. O‘quvchilarga vatanning muqaddasligi, yurt obodligi, farovon hayotimiz, xalqimizning mehnati va saxovatpeshaligi tufayli yuzaga kelishi to‘g‘risida tushuncha berishga mo‘ljallangan badiiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritilgan. Vatanning yagonaligi va unga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi yuzasidan suhbat uyushtirilishi ko‘zda tutilgan.

Biz yuqorida “O‘qish” o‘quv predmetining vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘limlari yuzasidan berilgan mavzulari bilan tanishib chiqdik.

Navbatdagi vazifamiz ushbu darsliklarda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlarning berilish darajasi va ahamiyatini tahlil etishdir.

1- sinf o‘qish va ona tili darsliklarida Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlar berilmagan.

2-snf ***Ikkinchi sinf o‘qish va ona tili darsliklarida ham*** Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlarni uchratmadik.

3-sinf ***Uchinchi sinf o‘qish darsligida*** Alisher Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga bir qadar kengroq to‘xtalgan bo‘lib, adib Anvar Obidjonning “O‘ktam avlod” nomli qo‘shig‘i berilgan bo‘lib, bu qo‘shiqda vatan ravnaqi, yurt ozodligiga hissa qo‘shgan bobokolonimiz Jaloliddin Manguberdi nomi ham tilga olingan. Shuningdek uchunchi sinf o‘qish darsligining 68-69-70-betlarida buyuk sarkarda haqida “Jaloliddin Manguberdi” nomli matn berilgan. Bu matn o‘quvchilarga buyuk vatandoshimiz Jaloliddin Manguberding yurt ozodligi, vatan ravnaqi yo‘lidagi jasorati haqida ma’lumot beradi. O‘quvchilar vatanparvarlik, mardlik, jasurlik,

polvonlik, tantilik, qattiyatlilik, vatan dushmanlariga nisbatan nafrat kabi tuyg'ularni shakllanishida yordam beradi.

Uchunchi sinf ona tili darsligida ham sarkarda haqidagi ma'lumotlarni uchratmadik.

4-sinf To'rtinchi sinf o'qish darsligida Erkin Samandarning "Shaxzodaning bolaligi" matni berilgan bo'lib bu matn orqali o'quvchilar Jaloliddin Manguberdi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Uchunchi sinf ona tili darsligida sulton Jaloliddin Manguberdi haqidagi ma'lumotlarni uchratmadik.

Biz yuqorida "O'qish" o'quv predmetining vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan bo'limlari yuzasidan berilgan mavzulari bilan tanishib chiqdik.

Navbatdagi vazifamiz ushbu darsliklarda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga ajratilgan mavzularni tahlil etishdir.

"O'qish" darsliklarini tahlil qilar ekanmiz, boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanganlik darajasini qay holatda ekanligiga asosiy e'tiborni qaratdik.

Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanish darajalarini aniqlash maqsadida ilmiy kuzatish usulidan foydalandik. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari bilan suhbatlar uyushtirdik, anketa so'rovlari va testlar asosida o'quvchilarning vatanparvarlikni shakllanganlik darajasini aniqlashga harakat qildik. Buning uchun Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri №34 umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari o'rtasida suhbatlar tashkil etdik va so'rovnomalar o'tkazdik.

Pedagogik kuzatish ishlari Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 34- sonli maktabida o'tkazildi. Pedagogik kuzatishlar davomida jami 15 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari, 50 nafar o'quvchilar ishtirok etdi.

Pedagogik kuzatish jarayonida suhbat, savol-javob, anketa, test metodlaridan foydalandik.

O'tkazilgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalarini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlari baland.

Biz tadqiqot ishimiz davomida yana shu narsaga amin bo'ldikki barkamol avlodga vatanparvarlik sifatlarni shakllantirish juda kichik yoshligidan boshlanmog'i lozim. Boshlang'ich sinf bu sohada dastlabki asos yaratdi. Shuning uchun boshlang'ich sinfda asosiy e'tibor bolani savodli, bilimli qilishga qaratilganligi bilan birga ularning axloqiy-estetik tarbiyasiga qaratiladi. Chunki yoshlidan berilgan to'g'ri tarbiyagina insonni ulug'vor kelajak tomon to'g'ri harakatini ta'minlaydi.

Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarni o'quvchilar ongiga singdirish uchun o'qituvchining o'zi ham bu ma'lumotlarni yaxshi bilishi lozim.

Shu maqsadda biz ushbu masalaning qanday yo'lga qo'yilganligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga quyidagi so'rov varaqalari bilan murojaat qildik:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish bo'yicha maktabingizda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish va uni hayotga tatbiq etish yo'l-yo'riqlari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik tushunchasini shakllanganlik darajasini qanday aniqlash mumkin?
4. Boshlang'ich sinflarda vatanparvarlik hissini shakllantirishda qaysi metodlardan ko'proq foydalanish mumkin?
5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik hissini shakllantirishda boshlang'ich sinf darsliklarida Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga oid berilgan ma'lumotlar sizni qoniqtiradimi?
6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik hissini shakllantirishda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga oid namunalaridan o'z pedagogik faoliyatingizda foydalanasizmi?

Mazkur savollarga boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tomonidan berilgan javoblarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik tushunchasini

shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi ekanligi, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida vatanparvarlik hissini tarbiyalashda xalqning boy madaniy merosi, tarixiy anʼanalariga, urf-odatlariga, umumbashariy qadriyatlari asoslanishi, Vatan tushunchasi va uning shaxs kamolotidagi ahamiyati toʻgʻri ifodalangan. Mustaqil Oʻzbekistonni rivojlantirishda boshlangʻich sinf oʻquvchilarida vatanparvarlik tushunchasini shakllantirishda, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, xalqimizning maʼnaviy merosi, xalq qahramonlari namunalari kabilarni oʻquvchilar ongiga yetkazish mazmuni bayon etilgan. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida vatanparvarlik, milliy munosabat madaniyatini shakllantirishning asosiy mazmuni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish – Oʻzbekiston xalqining taraqqiyot yoʻlidagi bosh gʻoyasi ekanligini oʻquvchilar ongiga yetkazish va shu asosda tarbiyalash zarurligi haqidagi fikrlar ham toʻgʻri qayd qilingan.

Biroq tadqiqot tahlilidan yana shu narsa narsa ayon boʻldiki, boshlangʻich sinf oʻqituvchilari vatanparvarlikni shakllantirishga xizmat qiladigan Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga oid namunalar haqida juda yuzaki maʼlumotga egalar. Buning asosiy sababi Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga oid maʼlumotlarni aynan oʻqib tanish emasliklari, oʻz malakalarini muntazam oshirmayotganliklari bilan izohlanadi.

Boshlangʻich sinflardanoq Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga oid maʼlumotlarni bilish darajalarini aniqlash maqsadida 3-sinf oʻquvchilari bilan ogʻzaki savol-javoblar uyushtirdik. Bunda biz ularning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga oldik (**1-ilova**).

Ogʻzaki savol-javoblar natijalariga koʻra oʻquvchilarning javoblarini 3 daraja boʻyicha baholadik:

Yuqori daraja. Bu darajaga savollarga aniq va toʻliq javob bergan oʻquvchilar kiritildi. Ular oʻz fikrlarini himoya qila oldilar. Shu bilan bir qatorda bu oʻquvchilar muloqot jarayonida oʻzlarini erkin, mustaqil tutdilar.

Oʻrta daraja. Bu darajaga savollarga toʻliq javob bera olmagan oʻquvchilar kiritildi. Ularning javoblaridan vatanga oid tushunchalarning mohiyatini toʻla

anglamaganliklari, ammo mamlakatimiz madhiyasi, uning ramzlarini shuningdek Jaloliddin Manguberdi shaxsi haqida yaxshi bilishlari ayon bo'ldi.

Quyi daraja. Bu darajaga vatanga oid tushunchalarning mohiyatini anglamagan, javoblarda o'ziga ishonchsiz, vatan madhiyasi va ramzlarini va Jaloliddin Manguberdi kim ekanligi haqidagi fikrlarni aytishda chalkashliklarga yo'l qo'yayotgan o'quvchilar kiritildi. Afsuski, bunday o'quvchilar soni ko'pchilikni tashkil etdi.

So'rovlarda ishtirok etgan o'quvchilarining javoblari quyidagi jadvalda aks etgan:

1.1.3-jadval

3-sinf o'quvchilarining vatanga oid tushunchalarni anglaganlik darajalari (tajriba boshida)

Guruhlar	O'quvchilar soni	Javoblar soni					
		Yuqori		O'rta		Quyi	
		naz. sinf	taj. sinf	naz. sinf	taj. sinf	naz. sinf	taj. sinf
3-sinf	50	11	10	16	15	23	25

Savollarga yozma javob bera olish ko'nikmalarining shakllanganligi va barcha o'quvchilarning ham oshkora javob bera olmasliklarini hisobga olib, shu maktablarning 4-sinf o'quvchilariga test so'rovnomalarini tarqatdik. Bu so'rovnomalar ham o'quvchilarning vatanga oid Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarni anglaganliklarini va vatanparvarlik ruhida tarbiyalanganligini aniqlashga qaratildi **(2-ilova)**.

Bunda baholash tartibini quyidagicha belgiladik. Har bir to'g'ri va aniq javob uchun 3 ball, noaniq javob uchun 2 ball, to'liqsiz javob uchun 1 ball, hech qanday javob berilmagan holda 0 ball bilan belgiladik. Ularning to'plagan ballari asosida vatanga va Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati haqidagi tushunchalarni anglash darajalari uch daraja bo'yicha aniqlandi:

Yuqori daraja: 21-30 ball to'plagan o'quvchilar.

O'rta daraja: 11-20 ball to'plagan o'quvchilar.

Quyi daraja: 10 va undan kam ball to'plagan o'quvchilar.

Test so'rovlarida 4-sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda aks etgan:

1.1.4-jadval

Test so'rovlari natijalari

Guruhlar	O‘quvchilar soni	Javoblar soni					
		Yuqori		O‘rta		Quyi	
		naz. sinf	taj. sinf	naz. sinf	taj. sinf	naz. sinf	taj. sinf
4-sinf	50	9	8	17	16	24	26

Test tahlillari natijalaridan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari “Vatan” tushunchasining mohiyatini anglaydilar, vatanimiz tarixida o‘tgan vatanparvar shaxslar haqida ma’lumotga egalar, Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati, davlatimiz madhiyasi, uning kim tomonidan yozilganligi va ramzlarida nima ifodalanganligini yaxshi bilishadi. Albatta, bu har bir pedagogning yutug‘i bo‘lishi bilan birga yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning natijasidir. Ammo ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bugungi kunda vatanparvarlik haqida tassavvurga ega emaslar. Masalan, “Qanday kishilarni vatanparvar kishilar deya olasiz?” savoliga o‘quvchilar ko‘proq harbiylarni e’tirof etganlar. Bu olingan test natijalari shundan dalolat beradiki, o‘quvchilar xalq qahramonlari qahramonliklari, allomalarimizning vatan haqidagi fikrlarini yaxshi anglay olmaganlar. Bunga asosiy sabab, darsliklarda berilgan vatanparvar kishilar (To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy) hayoti va faoliyati o‘rganilayotganda vatanparlik tushunchasining mohiyati ochib berilmagan, ularning vatan ozodligi yo‘lidagi qahramonliklari mohiyati to‘liq ma’lumotlarni shakllantirishga harakat qilinmagan.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanparvarlikni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayoniga izchil yondashuvni amalga oshirishni taqozo etadi. Shu sababli ishning keyingi bobda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanparvarlikni shakllantirish yo‘llari bayon etiladi. (Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunasida)

2.BOB. O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JALOLIDDIN MANGUBERDI HAYOTI VA FAOLIYATI NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

2.1.Dars jarayonida o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanish

Vatanparvarlik tuyg‘usi namuna ko‘rsatish, o‘quvchilarning xatti-harakatini uyushtirishni o‘z ichiga oladigan tarbiya vositalarini butun sistemasi natijasidagina tarkib topishi mumkin.

O‘quv jarayoni vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalashda juda katta ahamiyatga egadir. O‘quvchilar darslarda vatanimizning o‘tmishi va hozirgi hayotini o‘rganadilar fan, madaniyatining eng yaxshi namunalari, kurash va mehnat qahramonlari bilan tanishadilar. Bilim vatanparvarlik his-tuyg‘ularini uyg‘otishning eng muhim zaminidir.

Dars-saboq Vatan haqida bilim hosil qilishning manbaidir. Ana shu bilimlar asosida Vatanga muhabbat tuyg‘ulari tarkib topadi va mustahkamlanadi. Mana shu nuqtai-nazardan kelib chiqib biz yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalq qahramonlari namunalaridan foydalanilgan dars ishlanmalarini ishlab chikdik.

Mavzu: Jaloliddin Manguberdi.

(4-sinf uchun dars ishlanmasi)

Darsning maqsadi: O‘quvchilarni Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati bilan tanishtirish orqali, ularda vatanparvarlik, ahloq va odob, insonparvarlik sifatlarini tarbiyalash. Shuningdek tariximizga, ajdodlarimiz merosiga qiziqishni rivojlantirish.

Darsning tipi: Yangi bilim beruvchi.

Darsning metodi: suhbat, hikoya, savol-javob, baliq qiltig‘i metodlari.

Darsning jihozi: Mavzuga oid plakatlar, Jaloliddin Manguberdi sur‘ati, xarita, Jaloliddin Manguberdi jasorati tasvirlangan rasmlar.

Darsning borishi:

- 1) o'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashib, o'quvchilarning tayyorgarligini ko'zdan kechiradi;
- 2) o'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning egallagan bilim va malakalarini aniqlaydi.

Yangi mavzu: Jaloliddin Manguberdi.

1. O'qituvchi:

-Bolalar bugungi darsimiz buyuk sarkarda, vatanimiz ozodligi uchun kurashgan Jaloliddin Maguberdi haqida:

Alouddin Muhammad o'g'li Jaloliddin Manguberdi Xorazm zaminida dunyoga keldi. U yoshligidan epchil, chaqqon bo'lib, ot chopishga, qilichbozlikka, nayzabozlikka qiziqardi. Unga dinparvar, xalqparvar, janglarda dushmanga qarshi kurashgan inson Najmiddin Kubro ustozlik qildi va Jaloliddinni o'z o'g'lidek ko'rib ardoqladi. Najmiddin Kubro Jaloliddinga harbiy mashqlardan: otda chopish, qilichbozlikdan saboq berdi. Jaloliddin Manguberdi harbiy sirlarni puxta egallab olgan edi, shuning ham u janglarda qatnashib g'alabaga erishardi. Otasi Alouddin Muhammadning o'g'liga mehri baland edi.

U ayniqsa, mug'ullarga boshchilik qilgan Chingizxonga qarshi qattiq jang olib bordi. Bir jangda mug'ullar Jaloliddindan ustun keldilar. Jaloliddinning ancha askari o'ldi, qolganlari o'zlarini daryoga otdilar va daryoning nariga sohiliga eson-omon o'tib oldilar. Chingizxon askarlariga qanday bo'lmasin Jaloliddinni tiriklayin qo'lga tushirishlarini buyuradi, lekin bunga erisholmaydi, Sulton dushman qo'lida bandi bo'lishni istamaydi va otini minib oti bilan birgalikda o'zini daryoga otadi va daryoning narigi qirg'ogiga o'tib oladi. Chingizxon uning jasorati, mag'rurligiga qoyil qoladi, Jaloliddinning orqasidan quvmoqchi bo'lgan askarlarni to'xtatadi. U lashkarboshilarini uzoqdan o'ziga musht ko'rsatib ketayotgan Xorazmshoh o'g'lidan o'rnak olishga chaqirdi.

Jaloliddin bu fojiali jangdan so'ng yana o'n yil davomida mo'g'ullarga qarshi kurash olib bordi. Dushman bilan bo'lgan janglarda goh yengdi, goh yengildi. Sarkarda 1231-yil fojiali halok bo'ldi.

2.Xattaxtaga Jaloliddin Manguberdi rasmini iladi. Bolalardan so'raydi.

O‘qituvchi: Biz nima uchun Jaloliddin Manguberdini milliy qahramon deb ataymiz?

O‘quvchi: Jaloliddin Manguberdi o‘z ona yurtini, xalqini, to‘prog‘ini asrab-avayladi, saqlab qolish uchun jasorat ko‘rsatdi. Shuning uchun ham uni milliy qahramonimiz deb ataymiz.

O‘qituvchi: o‘quvchilar diqqatini Jaloliddinning sur‘atiga qaratadi va unga ta‘rif beradi: Jaloliddin Manguberdi qorachadan kelgan, o‘rta bo‘yli, og‘ir, bosiq kishi edi. U juda jiddiy xalqparvar inson edi.

O‘qituvchi: Vatan uchun kurashgan yana qanday milliy qahramonlarimizni bilasiz?

O‘quvchi: Spitamen, Shiroq, Muqanna, Najmiddin Kubro, Amir Temur kabi bobokalonlarimiz.

3. Matnni o‘quvchilar o‘qiydilar. Avval ichda o‘qish keyin qismlarga bo‘lib o‘qish. Mazmunini so‘zlash.

4. O‘qituvchi dars mavzusini yanada tushunarli va qiziqarli qilib o‘tish maqsadida Nazarmatning “Manguberdiman” she‘ridan parcha keltiradi:


Ona el nomi-la ont ichib,
Onajon izimdan keling sohilga.
Sizga ergashsinlar ahli oilam,
Izingiz qolmasin yovuz qotilga.
Shuni istar bizdan ona yurt bu dam
Men ketsam, qoladi elimga ruhim,
Elim-chun yo‘limni jangga berdim man.
Vatanim sen borsan, tugamas umrim.
O‘g‘ling Jaloliddin Manguberdiman.

5. O‘qituvchi she‘rning mazmunini so‘zlab beradi. She‘rda Jaloliddin Manguberdining dushmanga asir qo‘l bo‘lgandan ko‘ra o‘limni afzal ko‘rganligini ta‘kidlab o‘tadi. Bundan tashqari har bir yurt farzandi ona yurtini Jaloliddindek sevish lozimligini ham aytib o‘tadi.

6. Darsni mustahkamlash maqsadida o'qituvchi baliq qiltig'i metodidan foydalanadi. Ushbu metodda o'qituvchi o'tilgan mavzu yuzasidan baliq qiltig'i tepa qismiga savollarni yozadi. O'quvchilar esa javoblarni pastki qiltig'larga joylashtiradilar.

Savollar:

1. Jaloliddin Manguberdi kim bo'lgan ?
2. Jaloliddinning ustoz kim bo'lgan ?
3. Jaloliddin kimlarga qarshi janglar olib borgan?
4. Jaloliddin dushmanga asir tushgandan ko'ra nimani afzal deb biladi?
5. Jaloliddin Manguberdining otasining ismi kim edi?



O'qituvchi savol-javob asosida darsni mustahkamlaydi.

7. O'quvchilar baholanadi, ballar sharhlanadi va faol o'quvchilar rahbatlantiriladi.
8. Uyga vazifa: Matnni qiroat bilan o'qishni mashq qilish va she'rni yod olib kelish.

2.2. Sinfdan tashqari tadbirlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparlik ruhida tarbiyalash

Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarga e'tiborni kuchaytirish bilan ham ta'lim-tarbiya jarayonining uzviyligiga erishiladi. Darsdan va sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlarning vazifasi faqat bolalarni band qilish emas, balki ancha murakkab, ya'ni ularning darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizga nisbatan qiziqishini uyg'otish, qolaversa, ularning hayotini zavq va shavqqa to'ldirishdan iboratdir. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'lga qo'yish shakllaridan biridir.

Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga faol faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatlarga ega. Bu ishlarning maqsadi ham xuddi umumiy ta'lim maktabiniki kabidir.

Sinfdan tashqari ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda kungillik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtirgan mashg'ulotlarini tanlab olishadi va mustaqil, tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Sinfdan tashqari ishlar quyidagi vazifalarni hal etishi kerak:

- o'quvchilarning umumiy ta'lim va g'oyaviy, siyosiy bilim doirasini kengaytirish hamda chuqurlashtirish ularning bilimi va madaniy qiziqishlarini hamda ma'naviy ehtiyojlarini o'stirish;

- o'quvchilarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatini va mustaqilligini o'stirish, ularni ijtimoiy hayotida qo'llaridan keladigan ishlarga jalb qilish;

- Vatanni sevish, vatanparvarlik;

- fan va madaniyatning turli saholarida bolalarning ijodiy qobiliyatlari hamda mayillariga bo'sh vaqtlarini muayyan maqsadni ko'zlagan holda madaniy qilib o'tkazishni, sport-sog'lomlashtirish tadbirlarida ishtirok etishni o'rganish kabilar.

Sinfdan tashqari ishlar o'quv mashg'ulotlariga zarur qo'shimcha bo'lib muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Sinfdan tashqari ishlar ta'lim nuqtai-nazaridan maktabda olinadigan vatanparvarlikka doir bilimlarni puxta o'zlashtirish hamda chuqurlashtirish, o'quvchilarning bilimga qiziqishlarini qondirish va o'stirish, ularda har-xil ko'nikma va malakalar hosil qilish imkoniyatini beradi.

Sinfdan tashqari ishlar tarbiyaviy nuqtai-nazaridan o'quvchilarning mustaqilligini, ijodiy faolligini hamda faoliyatini o'stirish, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini aniqlash va har tomonlama rivojlantirish, vatanparvarlik tuyg'ularini shaxs, insoniylikning yuksak axloqiy sifatlarini tarkib toptirish imkoniyatini beradi.

Sinfdan tashqari ishlarga doir mashg'ulotlar mazmuni, maktab o'quv rejasi hamda dasturlari doirasidan tashqari bo'lib, bolalarning qiziqish hamda mayllarini hisobga olish asosida uyushtiriladi.

Sinfdan tashqari ishlar o'z mazmuniga ko'ra juda xilma-xil bo'ladi.

Sinfdan tashqari ishlar uch xil shaklda: ommaviy, to'garak va individual formada tashkil qilinadi.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik fazilatini tarbiyalash uchun o'qituvchi eng yaxshi kitoblarni targ'ib qilish va o'qilgan materiallarni to'g'ri, chuqur idrok etish, rivojlantirish zarur. Masalan: o'quvchilarni o'tmish tariximiz vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun Shiroq, To'maris, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi xalq qahramonlari haqidagi asarlarni tavsiya etish yoki mana shunday kitoblar yuzasidan suhbatlar tashkil qilish mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, Vatanimiz tarixini o'rgatishda shuni unutmasligi kerakki, o'z shahrimiz tarixi Vatanimiz tarixi takrorlanadi va aks etiladi. Chunki, Vatanga bo'lgan mehr, muhabbat har kimni o'zi tug'ilib o'sgan joyidan boshlanadi. Aytilganidek, Vatan-ostonad boshlanadi.

Biz o'quvchilarni vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan tadbir o'tkazdik. Bitiruv malakaviy ishimizda "Jaloliddin Manguberdi" nomli tadbir ishlanmasini misol tariqasida keltirishni joiz deb bildik.

“Jaloliddin Manguberdi yurt-o‘g‘loni”

(3-sinflar uchun tadbir ishlanmasi)

Sahna o‘ziga xos uslubda bezatilgan. To‘rda buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining sur‘ati. Uning vatanparvarlik, adolat, yaxshilik borasidagi fikrlaridan namunalar, shuningdek, Jaloliddin Manguberdi haqidagi adiblarimiz hamda muhtaram Yurtboshimizning so‘zlari yozilgan plakatlar osilgan. Sharlar, gullar, sahna ko‘rkiga ko‘rk qo‘shgan.

1-Milliy libosda ikki boshlovchi sahnaga chiqishadi. Ular “Yuz yilda tug‘ilar bir sardor” she’rini aytadilar.

boshlovchi:

Hotam dunyo hikmatlari bor,

Hikmati bor har bir tuhfasin.

Yuz yilda bir tug‘ilsa sardor,

Uni parvardigor asrasin.

2 – boshlovchi:

Beshikda tinch uxlar go‘dak jon,

Kulgusiga sadaqa bu jon.

Millat uchun kim bo‘lsa qalqon,

Parvardigor o‘zi asrasin.

1 – boshlovchi:

Yomon ko‘zdan saqlasin zinhor,

Kamolingni ko‘rolmaslar bor.

Kimki karvon boshidagi nor,

Parvardigor o‘zi asrasin.

2 – boshlovchi: Ha -Ona vatanimiz - xur O‘zbekiston! Istiqpol tufayli ochadi jamol. Insonlar dili g‘urur va iymon, mehr oqibatda topmoqda kamol. (Shu payt sahnaga o‘zga sayyoraliklarning fazoviy kemasi chiroqlarini uchirib, yondirib keladi va to‘xtaydi.)

Undan ovoz eshitiladi:

-Men - Mars! Men - Mars Meni eshitayapsizmi? Kemaning quvvat olish qismi ishlamay qoldi. Men bir notanish sayyoraga qo'nishga majburman.

Kemadan ikki kishi tushib keladi. Ular sahnadagi narsalarni, davradagi odamlarni ko'rib, xayron bo'ladilar.

Mehmon: Bu qaysi sayyora?
Olamning qaysi nuqtasi?
Nomi nedur?
Unda kimlar yashaydi?

1-boshlovchii: Bu sayyora, Ona yerdir.
Er va inson do'stlashgan.
Jannat kabi go'zal bu yurt,
Nomin aytadi sen eshit.

O'quvchilar jonli harflar bilan «**O'ZBEKISTON**» so'zini hosil qilishga kirishadilar:

O' - O'zligimni topdi o'zbek sunbulaning kunida,
Z - Zamon silsilasi qaytaraolmas maqsaddan.
B - Baht-saodat kelar albat, ahil bo'lsak, bizlarga
E - Yetuklikka intilamiz insoniylik burchimiz
K - Kamolat, ulug'lik tomon intilar xalkim.
I - Insonlar orzusi ezgulik, axir.
S - Sabr-toqat, iymon bulsa-da yo'ldosh,
T - Tinch o'tar inson umri, baht unga doim yuldosh.
O - Orzu niyatlarimiz: tinch bo'lsin butun jahon,
N - Nomi jahonda jaranglar ona yurt - O'zbekiston!!!

2-mehmon: Ofarin, ofarin! Doimo bulsin omon, Yurtingiz va xalqingiz doimo bo'lsin omon.

Mehmon: Bu ne shodiyona, qanday tantan,
Nega bunda barcha odam jamuljam?

2 – boshlovchi: Yurtimizda bayramlar ko'p, to'ylar ko'p,
Bag'ri kenglik, mehmondo'stlik, ellar ko'p
Yurtimizni sevib yovga bermagan
Mard va jasur Jaloliddin tavalludi sabab
Bugun hamma jamdir hamda ko'p

Mehmon: Jaloliddin deganingiz kim bo'ldi?

1 – boshlovchi: Al-Buxoriy, At-Termiziy hazrati bizga,
Ulug'beku, Al-Farg'oniy savlati bizga,
Temur bobo, Manguberdi davlati bizga,
Ona xalqim, dono xalqim, bizga inon!

2 – boshlovchi: Keling aziz mehmon siz bizning bugungi tadbirimizni tomosha qiling va o'zingiz Jaloliddin Manguberdi kim ekanligini shunda bilib olasiz.

Mehmon: Men bu taklifingizga roziman, chunki sizning yurtingiz va xalqingiz tarixi meni juda qiziqtirib qo'ydi.

1 – boshlovchi: Assalomu – alaykum aziz mehmonlar, qadrli ustozlar, hurmatli o'quvchilar. Bugungi buyuk sarkarda, Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga bag'ishlab o'tkazilayotgan tadbirimizga xush kelibsiz!

2 – boshlovchi: Sarkarda bobomiz faqat bizninggina yemas, balki jahon tarixining eng ulug', eng yorqin siymolaridan biridir.

1 – boshlovchi: Bugun biz donishmand alloma, Movarounnahr zaminida o'z xalqini chet el bosqinchilaridan himoya etgan, qudratli sarkarda Jaloliddin Manguberdi bosib o'tgan ibratli yo'liga bir qur nazar solamiz.

O'quvchilar ijrosida vatan haqida qo'shiq kuylanadi. Qo'shiq nihoyasiga yetgach boshlovchilar navbatni tadbir ishtirokchilariga beradi.

Sahnaga harbiy lashkarlar libosdagi o'quvchilar chiqishadi. Ular sarkarda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati haqida so'zlaydilar.

1 – o'quvchi: Shaxslar bo'ladiki, ilm-fanning turli sohalarida qalam tebratib, xalqning ma'rifiy-madaniy o'sishiga salmoqli ta'sir ko'rsatuvchi asarlar yozib qoldiradilar. Ular xalqning madaniyati xazinasida nodir boylik bo'lib saqlanadi va bir umr ashyoviy dalil sifatida xizmat qiladi. Yana bir xil shaxslar bo'ladiki, ular hech qanday asar yozib qoldirmaydilar ammo ularning hayoti va turmush tarzi, bosib o'tgan yo'li manzaralari, yashash tarzi va tajribalari jamiyatda tutgan o'rnini va mavqeyi, el-yurtda qozongan obro-e'tibori hamda bunga sabab bo'lgan omillar voqea va hodisalar ta'lim-tarbiya vositasi sifatida xizmat qilishga qodir. Tarix sahifalarida nomi zarhal harflar bilan yozilgan ana shunday buyuk va suyuk shaxslardan biri Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdidir.

2 – o'quvchi: Demak, Jaloliddin Manguberdining hayoti va turmush voqealarini davlatni boshqarish hamda harbiy faoliyatini chuqur tahlil asosida o'rganish va umumlashtirish hozirgi va kelgusi avlodni vatanparvarlik va xalqparvarlik qarashlarini tarkib toptirish, rivojlantirish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3 – o'quvchi: Xorazmshoh Abulfathning o'g'li Muhammad Tekish XII asr oxirlarida endigina taxtga o'tirgan paytda unga mulozimi Jahon Palvon nabiralik bo'lgani haqida xushxabar olib keladi. Yangi tug'ulgan bu farzandga Jaloliddin deb ism qo'yishadi. Xorazmshohiylar odatiga ko'ra, bu ism mo'tabar laqab sifatida qo'llanilgan.

4 – o'quvchi: Jaloliddin yoshligida ko'proq tog'asi jahon polvon tarbiyasida bo'lib uning diniy va dunyoviy bilimlar olishiga, adabiyot va san'atni, musiqa sirlarini o'rganishiga alohida ahamiyat berildi. Eng avvalo Jaloliddinga Xorazmona axloq-odob, mehr-oqibat, insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ulari singdiriladi. U qurol bilan va g'ilofsiz jang qilish sir-asrorini mukammal egalladi.

5 – o'quvchi: Jaloliddin Manguberdi butun hayoti davomida o'z xalqi va vatanini sevdi, tarixi va madaniyatini yuksak qadrladi, ona tabiat go'zalliklarini qalban his qildi, ardoqladi. Rivoyat qilishlaricha, Jaloliddin hayqirib oqayotgan Jayxunga kesak otgan ukasining chakkasiga tarsaki qo'yib yuboradi, - suvga kesak otmoq, tuproqqa

tupurmoq gunohi azim, sen Xorazmni onang o'rnida ko'r! – deb xitob qiladi. U Movarounnahrda mustaqil birlashgan davlat tuzdi. Mamlakatni chet el bosqinchilaridan asradi.

6 – o'quvchi: Movarounnahr yo'lbarisi Jaloliddin Chingizxon qo'shinlariga payt poylab shunday qaqshatgich zarbalar berganki, uning lashkarlari tum-taraqay bo'lib qochardilar. Jaloliddin shu tariqa o'n yillar davomida o'zining fidokor va jasur jangchilari bilan mo'g'ul tolanchilariga ona vatanining turli sarhadlarida zarbalar bergan. U goh Movarounnahr, goh Avg'oniston, goh Hind, goh Eron va Kavkaz orti hududlarida kezib, xalqlardan yangi-yangi lashkarlar to'plab yovuz dushman bilan tinimsiz olishdi. Xalqi erki, ozodligi va mustaqilligi uchun butun iste'dodini va kuchini baxshida etib ko'rashdi.

7 – o'quvchi: O'z vatani ozodligi yo'lida qo'lga qilich olib, dushmanga qaqshatqich zarbalar keltira olgan Xorazmning mard o'g'loni Jaloliddin Manguberdi mug'ul qushinlari bilan qaerda yuzma-yuz kelsa, ularga juda qattiq talofatlar etkazadi. Chingizxon eng sara lashkarlari va mohir sarkardalarini Jaloliddin Manguberdi izidan quvib borishga, uni yo'q qilishga, iloji bo'lsa tiriklayin qo'lgatushurishga qat'iy farmon beradi.

8 – o'quvchi: Lekin Movarounnahr yo'lbarsini mag'lub eta olmaydi. Uning ketidan hatto Chingizxonning o'zi ham maxsus lashkar bilan tushadi. Nihoyat, u bilan daryo sohilida ancha yuzma-yuz keladi-yu, baribir, buyuk sarkardani qo'lga tushura olmaydi.

9 – o'quvchi: Bu haqda German Vamberi o'zining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” asarida ana shu voqeani ajoyib tarzda tasvirlaydiki quyida undan bir lavhani keltiramiz. (Chingizxon va Jaloldinnin to'qnashuviga oid sahna ko'rinishi namoyish etiladi)

10 – o'quvchi: Hozirgina sahnada namoyish etilgan voqeadan shunday xulosa chiqarish mumkin, Jaloliddin Manguberdining jasoratini vijdonan his etgan bosqinchi Chingizxon ham unga nisbatan yuksak fikr bildirib o'zining ham Jaloliddin kabi mard va jasur farzandi bo'lishini xoxlaydi va uning mardligiga tan beradi.

11 – o‘quvchi: Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va xotirasi xalqimiz uchun buyuk qadriyat sanaladi. Uning ibratli hayoti, millati va vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbati, mustahkam e‘tiqodi har birimiz uchun namuna va o‘rnakdir.

O‘quvchilar milliy raqslarimizdan birini ijro yetishadi.

Boshlovchilar botir sarkarda haqidagi tarixiy ma’lumotlardan so‘zlaydilar.

1 – boshlovchi: Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va xotirasi xalqimiz uchun buyuk qadriyat sanaladi. Uning ibratli hayoti, millati va vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbati, mustahkam e‘tiqodi har birimiz uchun namuna va o‘rnakdir. Jangovor salohiyati va lashkarboshilik mahoratini o‘rganish, ularni kelgusi avlodga targ‘ib etish ta’lim-tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Uning vatan ozodligi yo‘lida chekkan zahmatlarini targ‘ib va tashviq qilish yosh avlodni vatan, el-yurtga e‘tiqod tomon yetaklaydi.

2 – boshlovchi: Bu borada Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yillicini nishonlash to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 sentyabrda qabul qilingan qarori ham alohida ahamiyat kasb etdi. Bu qarordan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi tegishli vazirliklar idoralari, hokimliklar jamoat tashkilotlari bilan birgalikda “Jaloliddin Manguberdining dunyo tarixida tutgan o‘rni” mavzusida halqaro konferensiya tashkil etildi. Ilmiy-ijodiy uyushmalar jamoat tashkilotlari va “Oltin meros” jamg‘armasi bilan birgalikda Jaloliddin Manguberdining Markaziy Osiyo xalqlari tarixida tutgan o‘rnini xolisona o‘rganib chiqdilar.

1 – boshlovchi: Bugungi kunda sulton Jaloliddin Manguberdi haqida ko‘plab asarlar va sherlar yozilgan.

2 – boshlovchi: Hozir davraga Nodirni taklif etamiz. Nodir bizga shoir Erkinning “Ajdodlar qilichi” tarixiy fojiasidan sarkarda tilidan aytilgan monologdan parcha ijro etib beradi.

Endi ko‘zin ochgan go‘dak beshik ichida,
Nafaslari qaytib, titrab big‘-big‘ yig‘lasa,
Nechun tig‘ga aylanmasin bizning moyimiz,
Qarshimizdan qonxo‘r chingiz lashkarlari nechuk
Parchalanib ketmas huddi o‘q tekkan toshdek.

Aks holda, ko‘r bo‘lgan yaxshi ko‘zimiz,
Shol bo‘lgani yaxshi oyoq-qo‘llarimizning,
Gar hammamiz bitta bo‘lib chingiz sirtmog‘in,
Uzolmasak, uni butkul yerning yuzidan,
Xuddi tergan dog‘ni yuvgan kabi sidirib,
Tashlolmasak, xarom bizga odam degan nom.

1 – boshlovchi: Jaloliddin Manguberdi shunday olijanob bir inson ediki, u shuhratparast, maishatboz, hudbin, kaltabin va qo‘rqoq otasi Muhammad Xorazmshoxdan mutlaqo farq qilib, jasur mardligi bilan ajralib turardi. Mo‘g‘ullar bosqini boshlanmasdanoq Jaloliddin xalq quyg‘usi bilan hamnafas bo‘lib, yurt himoyachilarining oldingi safida bo‘ladi, u o‘zining sarkardaligi, qurqmasligi, mardlik fazilatlarini namayon etadi.

2 – boshlovchi: U goh Movarounnahr, goh Avg‘oniston, goh Hind, goh Eron va Kavkaz orti hududlarida kezib, xalqlardan yangi-yangi lashkarlar to‘plab yovuz dushman bilan tinimsiz olishdi. Xalqi erki, ozodligi va mustaqilligi uchun butun iste‘dodini va kuchini baxshida etib ko‘rashdi.

1 – boshlovchi: Endi davramizga 3-sinf o‘quvchisi Asilani taklif etamiz.

2 – boshlovchi: Asilaxon bizga O‘zbekiston xalq qahromoni A.Oripovning ”O‘zbekiston” sherini aytib beradi.

Yurtim senga she‘r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo
Shoirlar bor o‘z yurtin butun
Olam aro atagan tanho
Ular she‘ri uchdi ko‘p yiroq
Qanotida kumush diyori
Bir o‘lka bor dunyoda biroq
Bitilmagan dostonidir bori
Faqat onsiz qalamim manim,
O‘zbekiston Vatanim manim

Shu yerda fazoviy kemandi chirokdari yonib, shu'la socha boshlaydi.

Mehmon: Ey, aziz insonlar, baxtlisiz doim, shunday yurt, shunday el ichrasiz , sizning shunday buyuk tarixingiz va Jaloliddin manguberdidek o'g'lonlaringiz bor ekan. Men komil ishonch bilan aytamanki bu yurtning kelajagi ham buyukdir hech shubhasiz. Jaloliddin Manguberdidagi vatanparvarlik tuyg'usini men hammangizga tilab qolaman va o'z yurtimdagilarga ham bu Jaloliddin haqidagi rivoyatlarni olib ketaman.

Mehmon: Xayrlashamiz! Qolar omad siz bilan,
Yashnasin el! Qolar iymon siz bilan

O'quvchilar: Biz o'zbeklar mehmonlarni ulug' ko'ramiz,
Erga tashrifingizni qutlug' bilamiz,
«Oq yo'l» deymiz ko'ksimizda qo'limiz.
Mehmonlarga doim ochiq uyimiz.

O'qituvchining xotima so'zlari bilan ertalik yakunlanadi:

Asl mardlik yurtda bo'lgan sadoqat,
Har bir o'zbek farzandida bor erur
O'z yurtiga sadoqat-u, matonat.
So'zim isbotida qandayin demang
Al-Buxoriy, At-Termiziy hazrati bizga,
Ulug'beku, Al-Farg'oniy savlati bizga,
Temur bobo, Manguberdi davlati bizga,
Ona xalqim, dono xalqim, bizga inon!

Rahmat, o'quvchilar! Elu yurtimiz baxtiga doimo sog'-salomat bo'linglar.

Aziz mehmonlar, qadrlil o'quvchilar, shu bilan Sulton Jaloliddin Manguberdi tavalludiga bag'ishlangan tadbirimiz nihoyasiga yetdi. Xayr sog' bo'ling, salomat bo'ling! O'quvchilar ijrosida "O'zbekiston" qo'shig'i yangraydi. Unga barcha jo'r bo'ladi.

Xulosa

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning negizida yosh avlodni vatanga e'tiqodli, ma'naviy-axloqiy fazilatlari yuksak darajada shakllangan insonlar qilib tarbiyalash maqsadi yotadi. Mamlakatimiz islohotlar va rivojlanish jarayonlarini boshidan kechirayotgan bir paytda, yosh avlodda mustahkam vatanparvarlik hislatini shakllantirish davr talabidir. O'quvchi yoshlarda vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilish, vatan manfaatini o'z manfaatlaridan ustun qo'yish, vatanni qo'riqlash, yurt tabiati va boyliklarini asrash, eng asosiysi vatanga nisbatan chin e'tiqodni shakllantirish ota-onalar hamda tarbiyachi-pedagoglarning asosiy vazifasidir. Bu vazifani amalga oshirishda buyuk bobolarimiz Spitamen, To'maris, Shiroq, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi vatandoshlarimizning Turkiston xalqlari tarixida tutgan o'rni mustaqillik uchun Vatan dushmanlariga qarshi kurashlarda ko'rsatgan jasoratlari yoshlarga namuna va o'rnak qilib ko'rsatish ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta manba bo'lib xizmat qiladi.

Bizning bugun erishgan eng katta yutug'imiz, eng katta boyligimiz-yurtimiz ozodligi, xalqimizning aql-zakovati, uning tanlagan yo'limizdagi ishonchi, mamlakatimizda hukm so'rayotgan xalqaro do'stlik, fuqarolar totuvligi, yurtimizning tinchligi va osoyishtaligidir.

Ushbu osoyishtalik, tinchlikning barqarorligi yurt ravnaqi vatanparvar yoshlar qo'lidadir. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatini o'rganishning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, Jaloliddin Manguberdi vatan ozodligi, obodligi, el tinchligi, yurt ravnaqi yo'lida jasorat ko'rsatgan insonlardandir. Jaloliddin Manguberdining vatan ozodligi yo'lidagi qahramonona matonatini o'rganish, o'quvchilar dunyoqarashini o'sishiga, vatanparvarlik, mardlik, qattiatlilik, chidamlilik, tirishqoqlik kabi fazilatlarni tarkib topishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim degan xulosaga keldik:

-umumiy ta'lim maktablarida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati namunalaridan kengroq foydalanishga e'tiborni qaratish lozim;

-Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati haqida o'quvchilarga tushuncha berishda ularning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilinishi zarur;

- Jaloliddin Manguberdining vatan ozodligi yo'lidagi jasorati namunalaridan tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda foydalanilsa, o'quvchilarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

-boshlang'ich sinf darsliklarida Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar kengroq qilib kiritilsa, o'quvchilarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda ijobiy natija beradi degan xulosaga keldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - T.: O'zbekiston, 2003.
2. Karimov I.A. O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat. -T.: O'zbekiston, 1992.- 62 b.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. -T.: O'zbekiston, 1992. –78 b.
4. Karimov I.A. Shu aziz Vatan - barchamizniki. -T.: Universitet, 1995.-23 b.
6. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -T.: O'zbekiston, 1995. – 278 b.
7. Karimov I.A. Turkiston - umumiy uyimiz. -T.: O'zbekiston, 1995. - 46 b.
8. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T.: O'zbekiston, 1996. - 380 b.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997. - 326 b.
11. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqi. -T.: SHarq, 1998. -63 b.
12. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: SHarq, 1998. -31b
13. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. - T.: O'zbekiston, T.8. 2000. -528 b.
14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. -61-176 b.
15. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni / Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq nashriyot – matbaa konserni, 1997. -20-29-b.
16. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi / Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq nashriyot – matbaa konserni, 1997. -31-61-b.
17. Amir Temur. Amir Temur o'g'itlari. (To'plam). Tuzuvchilar: B.Ahmedov, A.Aminov. - T.: Navro'z, 1992. -64 b.

18. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. - T.: Gʻ. Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashr., 1989. -349 b.
19. Aminov B., Rasulov T. Vatan yurakdagi javohir. - T.: Oʻqituvchi, 2001. - 232 b.
20. Bobur Z.M. Devon.-T.: Fan, 1994.-143 b.
21. Yoʻldoshev J. Taʼlimimiz istiqlol yoʻlida.-T.: SHarq, 1996.- 223 b.
22. Matjonov S., Shojalilov A., Gʻulomova H va boshqalar. Oʻqish. (4-sinf darsligi).- T.: Yangi yoʻl poligraph servise, 2007.- 271 b.
23. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari.- T.: Fan, 1994.- 133 b.
24. Mahmudov T. Mustaqillik va maʼnaviyat.- T.: SHarq, 2001.-160 b.
25. Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. T.: Yangi asr avlodi. -2002, -192 b.
26. Munavvarov A. Pedagogika. Pedagogika Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik.- T.: Oʻqituvchi, 1996.- 200 b.
27. Ochilov M.O., Ochilova N.M. Oʻqituvchi odobi.-T.: 1997.-136 b.
28. Ochilov M. Muallim-qalb meʼmori. Saylanma.-T.: Oʻqituvchi, 2001.-430b
29. Oripova N. boshlangʻich sinf oʻquvchilarida vatanga eʼtiqodni shakllantirish Ped. fan. nomz... diss.- T., 2008.- 140 b.
30. Umarova M., Hakimova Sh. Oʻqish. (3-sinf). T.: Ijod dunyosi, 2004.-238 b.
31. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi.- T.: Davlat ilmiy nashriyoti, Tom 2, 2001.- 703 b.
32. Oʻzbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. T.: Oʻqituvchi, 1995.- 478 b.
33. Oʻzbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild. T.: Oʻqituvchi, 1999.- 478 b.
34. Oʻzbek tilining izohli lugʻati.-M.: Rus tili, Tom 2, 1981.- 715 b.
35. Oʻgʻizxondan qolgan mulk. - T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1995.- 125 b.
36. Gʻafforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. Oʻqish. (1-sinf darsligi).- T.: Sharq, 2005.- 127 b.
37. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. - T.: Oʻqituvchi, 1997.- 248 b.

- 38.** Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi // Darslik.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2005.-304 b.
- 39.** Erkayev A. Ma'naviyat - millat nishoni.- T.: Ma'naviyat, 1997.- 188 b.
- 40.** Erkin Samandar. Jaloliddin Manguberdi.- T.: SHarq, 1999.- 269 b.

I L O V A L A R

**1-sinf o‘quvchilarining vatanga oid tushunchalarni anglash
darajalari yuzasidan berilgan og‘zaki savollar: (ilova-№1)**

1. Vatan nima?
2. Vataningiz nomini ayting?
3. Madhiyani aytib bering?
4. Bayroqda qanday ranglar bor?
5. Amir Temur, Alisher Navoiy, Boburlar kimning vatandoshi?
6. Gerbdagi qush nomini ayting?
7. SHahar yoki qishlog‘ingizni nima uchun yaxshi ko‘rasiz?
8. Siz yashab turgan mahalla, qishloq, ko‘cha nomi nima deb yuritiladi?
9. To‘maris va Shiroq jasorati haqida nimalarni bilasiz?
10. Vataningiz poytaxti qayer?

4 sinf o'quvchilarining vatanga oid tushunchalarni anglaganlik darajalarini

aniqlash uchun test savollari (ilova № 2)

1. Kitoblaringizda “sajdagoh kabi muqaddas” deb aytilgan narsa nomini belgilang?

- a) shamol
- b) yulduzlar
- v) Vatan

2. Vatanningizni qadrlaysizmi, nima uchun?

- a) yashab turgan joy bo'lganligi uchun
- b) tug'ilib o'sayotgan makon bo'lganligi uchun
- v) barcha javoblar to'g'ri

3. Qadimiy obidalarga boy qanday shaharlarni bilasiz?

- a) Xiva, Samarqand
- b) Buxoro, Qarshi
- v) barcha javoblar to'g'ri;

4. Vatanningizda joylashgan viloyatlarning nomlari qaysi javobda to'liq ko'rsatilgan ?

- a) Buxoro, Qarshi, Navoiy, Qashqadaryo, Urganch, Jizzax, Farg'ona, Nukus
- b) Sirdaryo, Guliston, Xorazm, Andijon, Namangan, Termiz, Farg'ona,
- v) Buxoro, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm, Farg'ona, Andijon, Namangan, Toshkent, Surxandaryo.

5.El-yurt uchun fidoiy insonlarni belgilang ?

- a) To'maris, Chingizxon, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi
- b) Amir Temur, Shiroq, Najmiddin Kubro, Doro 1
- v) Amir Temur, Shiroq, Tumaris, Najmiddin Kubro,

6. Vatanparvarlik deganda nimani tushunasiz?

- a) a'lo baholarga o'qish
- b) vatan ravnaqi uchun intilish
- v) vatandoshlarni hurmat qilish

7. Vatanparvar kishi qanday bo'lishi kerak ?

- a) harbiy
- b) mehnatkash
- v) ona-tabiatni asraydigan
- g) hamma javoblar to'g'ri

8. To'maris kim bo'lgan?

- a) sarkarda
- b) qabila boshlig'i
- v) shoir

9. Temur Malik kimlarga qarshi jang qilgan ?

- a) vatan bosqinchilariga
- b) vatan xoinlariga
- v) vatan bo'zg'unchilariga

10. Amir Temur qayerda tug'ilgan?

- a) Qarshida
- b) SHahrisabzda
- v) Samarqandda